


# COLLECTION

Innovation, integration and modern  
problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and  
practice

www.d-pressa.com

31  
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE  
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and practice collection of materials of the  
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

**Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice** – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 790 pp.

**Editors in charge:** Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

## XALQARO IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI

**Norbekov Xursandmurod O'ktam o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali  
"Iqtisodiyot va turizm" kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro turizm tarixi va rivojlanishi, Buyuk Ipak yo'lining dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishidagi o'rni, yurtimizning buyuk olim va mutafakkirlarining Buyuk geografik kashfiyotlarga qo'shgan hissasi, turizm tarixini, maktab o'quvchilarining Yevropa davlatlari bo'ylab piyoda sayohati, Tomas Kukning sayohat marshruti va XX asrning ikkinchi yarmida sobiq Ittifoqda turizmga e'tibor qaratilishiga oid ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro turizm tarix, "Buyuk Ipak yo'li", Buyuk geografik kashfiyotlar, maktab o'quvchilarining sayohati, Tomas Kukning sayohati, sobiq Ittifoqda turizm.

### KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning salmoqli daromad keltiruvchi sohalaridan biriga aylanib olgan ko'pchiligimizga ma'lum. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qabul qilgan farmonida "...turizm tarmog'i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish" masalasi o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bugungi kunda mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmog'ida, bu esa mazkur sohaning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, soxadan kelayotgan daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va yashash sifatini yaxshilash, shuningdek, investitsion jozibadorlikni yanada oshirishga qaratilgan. Turizm qadimdan xalqlar o'rtasidagi (iqtisodiy, savdo sotiq, fan, madaniyat, san'at, hunarmandchilik va h.k.) aloqa manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, eramizdan avvalgi 3-2 ming yillar davomida kishilarning yangi geografik joylarni ochish, o'zlari uchun qulay hududlarni egallab olish, boylik orttirish va boshqa maqsadlarda dunyoni o'rgana boshlangan. "Buyuk Ipak yo'li" ning ochilishi va undagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bevosita turizm geografiyasining tarixiga borib taqaladi. Bundan tashqari, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida dunyo okeani bo'ylab sayyohatlar olamni bilish va yangi yerlarni ochish

maqsadidagi turli geografik sayohatlar turizmning shakllanishida muhim omil bo'ldi. Bu o'rinda yurtimizning buyuk olim va mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning ham xizmatlari kattadir.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Mazkur fanning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini ba'zi ilmiy adabiyotlarda (Unitsiker, Mariotti va h.k.) o'ziga xos tarixiy bosqichlarga ajratgan. Jumladan, M.V. Sokolova turizm tarixini keng ko'lamli tadqiq etib, uni 4 bosqichga (Qadimgi sayohat, O'rta asr yurishlari va sayohatlar, Yangi davr turizmi rivojlanishi va XX asr turizmi) ajratgan (Sokolova, 2002). Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda turizm tarixini 3 qismga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Qadimgi hamda o'rta asr va uyg'onish davri turizmi;
2. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr turizmi;
3. Hozirgi zamon turizmi

Ma'lumki, dastlabki turistik sayohatlar savdo sotiq maqsadlarida vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi, bundan 14 ming yil avvalgi qadimgi Misrda o'ziga xos tusga kirgan Misr shohi Xatshepsut dengiz ekspeditsiyasida sayohat uyushtiradi (Shapoval, 1998). Eramizdan avvalgi VI - asrda Misr firauni Nexao uch yillik sayohatni Afrika bo'ylab tashkil etadi. Keyinchalik esa misr zodagonlari ko'plab shaharlarga (Gretsiya, Rim va h.k.) sayohatga chiqa boshladi. Bu davrda turizm boylik topish uchun uyushtirilardi. Shuning uchun ular o'zlari uchun qulay yo'llar va dam olish joylari barpo etadi. Boylik orttirish maqsadida bundan 2300 yil avval Ksenofont grek portini qurish, savdo rastalari va davlat uylari barpo etishni buyuradi. Bu unga katta daromad olib keladi. Ayni paytda mehmonxona xo'jaligi xizmatlari shakllantiriladi. Ba'zi yunon va rimliklar o'zi yashab turgan shahardan uncha uzoq bo'lmagan tog' va tog' oldi hududlarida dam olish, davolanish va ov qilish uchun maxsus joylarni barpo etishgan. Turizm ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o'sib bordi. K. Liberening ta'rificha, "Yevropada XVIII - asrda turizm yangi ko'rinish oldi vasayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadida hamda savdo-sotiq ahamiyatidagi sayohatlar tez o'sdi" -deb aytadi (Erdavletov, 2000, s.81-84).XVII-XVIII asrda maktab o'quvchilarining Yevropa davlatlari bo'ylab piyoda sayohati tarixga "Buyuk turistik sayohat" bo'lib kirdi. Ular Londondan boshlab Ispaniya, Frantsiya, Italiya va Gretsiya davlatlarida bo'lishib, sayohat davomida har birdavlatning hayoti, turmush tarzi, urf odati, madaniyati va sanhati bilan tanishdilar. Birinchi bo'lib ommaviy turistik sayohat Angliyada 1841-yili Tomas Kuk uyushtirgan turistik marshrut bo'ldi. U 600 kishilik sayyohni temir yo'l transportida Leysterdan Lafboroga sayohat tashkil qildi. Kuk 1845-yil Liverpulga, 1865 yil Shveytsariyaga sayohat uyushtirdi va 1882-yil dunyoda birinchi bo'lib jahon bo'ylab turistik sayohat qildi. Tomas Kuk o'z sayohat marshrutida temir yo'l, kema, mehmonxona va boshqa ob'ektlar bilan shartnoma asosida sayohatni tashkil etdi (Yerdavletov, 2000, s.85). XIX - asrning ikkinchi yarmidan keyin G'arbiy Yevropa va Amerika davlatlarida turizm alohida boshqaruv va uyushtirilgan turistik guruhlar asosida rivojlana boshladi. Birinchi jahon urushigacha chet el turizmida aksariyat yuqoritabaqali boy aholi qatnashdi. Bu

davrda turistik sayohatlar asosan dengiz va dengiz bo‘ylari qirg‘oqlari hamda dam olish uylariga uyushtirildi. Bunda asosan Frantsiya, Italiya, Shveysariya va boshqa davlatlarda turistik faoliyat rivojlandi.

### **MUHOKAMA**

Birinchi va Ikkinchi jahon urushi yillari oralig‘ida turistik sayohatlar o‘ziga xos yangi mazmun kasb etdi. Endilikda turistlar tomosha va dam olish bilan birgalikda tanishuv maqsadlari, qadimiy yodgorliklar, arxitektura, san‘at, madaniy yodgorliklarni o‘rganishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyo miqyosda xalqaro turizmning o‘sish sur‘ati nihoyatda pasayib ketdi. Birinchi jahon urushi davrida yiliga xalqaro turizmga 18-19 mln. kishi mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, 1947-yilda ushbu faoliyatda 16,6 mln, 1949-yilda esa 20 mln. kishi qatnashdi. G‘arbiy Yevropada XX - asrning ikkinchi yarmidan keyin “ichki Yevropa xarakteri”ga xos turizm rivojlandi (Zachinyaev, Falg‘ovich, 1972). Turistik sayohatlar Skandinaviya, Avstriya, GFR, Ispaniya, Italiya, Frantsiya va boshqa qo‘shni davlatlar o‘rtasida keng miqyosda uyushtirildi. Amerika qithasida ham AQSH, Kanada, Meksika, Panama kabi davlatlarda u tez o‘tdi. Amerika sayyohlarining Yevropaga va, aksincha, Yevropa sayyohlarining Amerika va boshqa qit‘a mamlakatlariga sayohati kengaydi. XX - asrning ikkinchi yarmidan keyin sobiq Ittifoqda ham turizmga e‘tibor qaratildi. Ushbu turistik sayohatlarni asosan sobiq sotsialistik davlatlarga uyushtirishni ko‘zda tutdi. Bu hukumat 1969-yil 26-iyun ittifoqdosh respublikalarda turizmni rivojlantirish to‘g‘risida farmon chiqardi. Shundan keyingi yillar davomida Hamdo‘stlik davlatlarida turizm shakllana boshladi. Biroq, ta’kidlash joizki, uzoq mustabit tizim davrida qadimdan shakllanib kelgan sayyohlikning o‘ziga xos xususiyatlari ancha yo‘qolib ketgan edi.

### **XULOSA**

Binobarin, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlarda turizmning yangi yo‘nalishlari vujudga kela boshladi. Afsus bilan aytish lozimki, 70 - yillik qatog‘onlik deb atalmish sovetlar davrida jahon turizmining nihoyatda rivojlanishi, xo‘jalikning muhim tarmog‘i sifatida shakllanishi asosan G‘arbiy Yevropa, Amerika va Sharqiy Osiyo davlatlarida ko‘zga tashlandi, bizda esa, aksincha, u unchalik taraqqiy etmadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
2. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 589-592.
3. Salaxiddinov M., Pardaboyev S., Norbekov X. IQTISODIYOTDA OVQATLANISH KORXONALARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 228-230.

4. Baxtiyorova G., Xaqberdiyeva Z., Norbekov X. O 'ZBEKISTONDA IQTISODIY TURIZM //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 197-199.
5. Dilshodova N., Rustamova G., Norbekov X. IQTISODIY INDUSTRIYASI FANINING MAQSADI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 210-213.
6. Abrorova B., Ziyatova R., Norbekov X. IQTISODIY O 'SISHDA TURIZMNING O 'RNI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 190-193.
7. Nuriddinova S., Norbekov X. XALQARO IQTISODIY TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 214-217.
8. Tirkashev U. THE NEGATIVE IMPACT OF INFLATION IN THE WORLD ON THE WELL-BEING OF THE POPULATION, THE COST OF PRODUCTS AND SERVICES //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 26-30.
9. Tirkashev U. IQTISODIY O 'SISH DARAJASINI IFODALOVCHI KO 'RSATKICHLAR TIZIMI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 66-69.
10. Цой М., Камолов Д. ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Academic literature. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 1-105.
11. Tirkashev U., Lutfullayeva M. YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK AFZALLIKLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 284-286.
12. Bo'ltakov S. O 'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 565-567.
13. Bo'ltakov S. BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 366-371.
14. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI ANAMIYATI //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований. – 2022. – T. 2. – №. 12. – С. 60-62.
15. Bo'ltakov S. Innovatsion Usulda Baliq Yetishtirishning Iqtisodiy Samaradorligini Oshirish Yo 'llari (Sirdaryo Tumani Misolida) //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 9. – С. 666837.
16. Po'latova R., Saloxitdinov S. ZOMIN TUMANIDAGI TURISTIK OB'EKTLARNING RENTABELLIK DARAJASI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 263-267.
17. Gaybullayev S. FORMS OF PROVIDING LOANS TO SMALL BUSINESSES //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 86-89.